



FARG'ONA VODIYSIDA UCHROVCHI QIZIL KITOBGA KIRITILGAN DORIVOR O'SIMLIKLAR VA ULARNING ISHLATILISHI.

Yursunova O'g'iloy Mamitali qizi

Farg'ona Davlat Universiteti biologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Farg'ona vodiysi o'ziga xos ko'plab dorivor o'simliklari mavjudligi bilan alohida o'rinda turadi. Hududda ko'plab dorivor o'simliklar, endem turlar va subendem turlar uchraydi. Mamlakatimizda dorivor va ziravor o'simliklarni rivojlantirishga, xususan tabiiy boyliklardan samarali va unumli foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Ushbu maqolada Farg'ona vodiysida uchraydigan noyob dorivor o'simliklar, ularning soni, dorivorlik xususiyati, ularning tibbiyotda qo'llanilishi va saqlab qolish chora tadbirlari haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Noyob o'simliklar, endem va subendem turlar, dorivor o'simliklar, kovrak bex, herba adonidis, oshqozon-ichak kasaliklari, vitamin yetishmovchiligi, vitaminlar, steroidlar, alkaloidlar, saponinlar, antropogen omil va boshqalar.*

Yer yuzida dorivor o'simliklarning 10—12 ming turi borligi aniqlangan. 1000 dan ortiq o'simlik turining kimyoviy, farmakologik xossalari tekshirilgan. O'zbekistonda dorivor o'simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Shulardan tabiiy sharoitda o'sadigan va madaniylashtirilgan 120 ga yaqin o'simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi. Hozirgi davrda tibbiyotda qo'llaniladigan doridarmonlarning qariyb 40—47% o'simlik xom ashyolaridan olinadi. O'simliklar murakkab tuzilishiga ega bo'lgan jonli tabiiy kimyoviy laboratoriya bo'lib, oddiy noorganik moddalardan murakkab organik moddalar yoki birikmalarni yaratish qobiliyatiga ega. Dorivor o'simliklarning quritilgan o'ti, kurtagi, ildizi, ildizpoyasi, tunganagi, piyozi, po'stlog'i, bargi, guli, g'unchasi, mevasi, danagi, sharbati, qiyomi, toshchoyi, efir moyi va boshqalardan doridarmon tarzida foydalaniladi. O'zbekistonda tarqalgan o'simliklarning 10-12% muhofaza qilishga muhtoj o'simliklar hisoblanadi. So'ngi yillarda bu o'simliklardan noto'g'ri foydalanish va ayovsiz yig'ib olinishi va qarovsiz qolganligi sababli turlar soni kamayib, yo'qolib ketish arafasiga kelib qolgan. Bunday o'simliklarni himoyalash maqsadida O'zbekiston Respublikasi qizil kitobi ta'sis etilgan bo'lib, bu kitobga 4 ta kategorya bo'yicha o'simliklar kiritiladi. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi 1984-yilgi birinchi nashrida 163 tur o'simlik kiritilgan bo'lsa, 1998-yildagi nashrida bu o'simliklar soni 301taga yetdi. So'ngi 2019-yildagi yangi nashrda bu raqamlar 314 taga yetdi. Bundan ko'rinib turibdiki, so'ngi yillarda hududimizdagi o'simliklarning maydonlari va turlari kamayib bormoqda. So'ngi o'n yillik natijalar shuni ko'rsatdiki O'zbekiston hududida muhofazaga muhtoj yana 138



o'simlik turlari aniqlandi. O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasining izlanishlari natijasida O'zbekistonda uchraydigan chiroyli gullari bilan dunyoga mashhur lola va sallagullarning piyozlari bilan ayovsiz o'rib olinishi natijasida turlar soni keskin kamayib ketganligi aniqlandi. Xalq tabobatida va tibbiyotda keng qo'llaniladigan qimmatbaxo dorivor o'simliklar hisoblangan yetmak, buzulbang, kovrak, shirinmiya, kovul kabi o'simliklar soni ham xomashyo bazasi ham sezilarli kamaydi. Bundan tashqari Buxoro otostegiyasi, yirik giliostrovskiya, Minkivits teziumi kabi relik turlar yo'qolib ketish arafasiga kelib qoldi.

Farg'ona vodiysida 2000 dan ortiq gulli o'simliklar tarqalgan bo'lib, ular orasida shifobaxsh o'simliklar alohida o'rin egallaydi. Rang-barang flora va o'simliklar qoplaminig mavjudligi turlarga boy bo'lgan dorivor o'simliklar o'sishini taqozo etadi. Vodiy hududlarida 276 turdorivor o'simliklar tarqalganbo'lib, ular 309 turkum va 74 oilaga mansub. Farg'ona vodiysi dorivor o'simliklarining 422 turi (89%) xalq tabobatida va 54 turi(11%) ilmiy tibbiyotda qo'llaniladi. Farg'ona vodiysining tabiiy o'simliklar qoplamiga tushayotgan antropogen ta'sirotlar miqyosining oshib borishi tufayli bir qancha shifobaxsh turlarning areallari qisqarib, zaxiralari keskin kamayib bormoqda. Ularning ayrimlari muhofazaga va madaniylashtirishga muhtoj bo'lib qolmoqda. Insonlarning o'simliklardan noto'g'ri foydalanishi natijasida esa bunday o'simliklar tobora kamayib bormoqda. Qizil kitobning yangi nashrida 20 dan ortiq dorivor o'simliklar turlari kiritilgan bo'lib, ularning hammasi ham tarkibi jihatdan juda foydali hisoblanadi. Ularning taribida efir moylari, alkaloidlar, karotinlar flavanoidlar, kumarinlar va bacha turdagi vitaminlar mavjud.

Kovrak-Ferula o'simligi ziradoshlar oilasiga mansub, ko'p yillik o'simlik. Yer yuzida bu o'simlikning 160 dan ziyod turi tarqalgan. Bo'yi 1 metrga yetadigon, poyasi tik, yog'on, ichi kovak, yuqori qismi shoxlangan. Ildizoldi bargali bandli, 3 bo'lakli, poyadagilari maydaroq, poyada ketma-ket joylashgan. Gullari soyabon to'pgulda joylashgan. Kovrak monokarp o'simlik bo'lib, 7-8 yilda bir marotaba gullab, urug' beradi. Kovrak ildizi tarkibida havoda qotib qoladigon asafetida va efir moylari saqlaydi. Asfetidaning tarkibidan ferfulat kislata, qatron spirtlar, kumarinlar ajratib olingan. Efir moyidan esa sulfidlar, kumarin va boshqa moddalar borligi aniqlangan. Ildiz tarkibida kraxmal ham bor. Kovrak ildizidan olingan yelimdan asab sistemasi kasalliklarida o'pkadagi shamollash astma, ko'k yo'tal, sil, zaxm kasalliklarida foydalaniladi. Kovrakdan tayyorlangan galen pereparatlari esa arterial bosimni pasaytiradi, kapillyar qon tomirlari mo'rtligini bartaraf etadi. Ildizidan tayyorlangan damlama har qanday og'riqni qoldirish xususiyatiga ega. Hozirgi kunda kovrakning ildizi bilan ayovsiz o'rib olinishi natijasida, kovrakning tabiiy tarqalgan hududlari keskin kamayib ketdi. Chunki kovrakning ildizi bilan sug'urib olingan joydan boshqa kovrak unib chiqmaydi bu esa, kovrak o'simligining soni kamayishiga yana bir sabab hisoblanadi.



Adonis-herba adonidis renunculacae oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Uzunligi 5-20 sm ga yetadi. Ildizi qisqa jigarrang tusda bo'ladi. Barglari tuxumsimon, palmasimon, 5 bo'lakka bo'lingan, tuksiz bo'ladi. Gullari poyaning tepasida yakka yaka joylashadi, yirik sariq rangli bo'ladi. Mevasi yong'oq. Aprel may-oylarida gullaydi, mevalari iyun-iyulda pishadi. Adonis tarkibida yurak glikozidlari mavjud. Pishmagan mevalari va barglari ularga eng boy hisoblanadi. O'simlikning yer ustki qismida K-strofantin, simarin moddalari bor. Ildiz qimida esa K-sprofantin mavjud. Glikozidlardan tashqari bu o'simlikda o'sadi. Bo'yi 50-80 sm ildizi 2 m chuqurlikkacha boradi buralgan, barglari qaram-qarshi, qalami yoki nashtarsimon. Barg bandi va poyasi tuksiz yoki mayda mayin tuklar bilan qoplangan bo'ladi. Gullari mayda bo'lib, shoxlarining uchki qismida 2tadan bo'lib joylashadi. Gultoji barglari pushti 5ta, changchisi esa 10ta, urug'chisi 1ta. Mevasi bir urug'li meva. Adonisdan yurak aksalliklarida keng foydalaniladi. Yurak tezligini sekinlashtirish, sistolni oshirish, diastolni uzaytirish, yurak urish hajmini oshirishda keng foydalaniladi Anzur yoki suvarov piyozi piyozdoshlar oilasiga mansub piyozboshli o'simlik xisoblanadi. Bu o'simlikni Oltoy Tyanshan,Osiyo tog'larida uchratish mumkin. O'simlikning barglari keng 35-40 sm, uchlari pastga qaragan bo'ladi. O'simlikning balandligi 130sm gacha yetadi, to'pgullari yarim sharyoki sharsimon shaklda bo'ladi. To'pgulining diametiri 10-12 smga yetadi. Gullari pushti-binafsha rangda bo'ladi.Tarkibida boshqa piyozli o'simliklarga nisbata bir-necha marta ko'p C vitamini, barglarida esa B va E vitaminlari, steroidlar, alkaloidlar, saponinlar aniqlangan. Bu o'simlik chiroyli bo'lishi bilan birga foydali ham xisoblanadi. Imunitetni oshirish va qonaylanishini yaxshilash xususiyatiga ega.

Xulosa .

Atrof-muhit tirik organizmlarining yashashi uchun normal ekologik parametrlarga ega bo'lgan chegaralar miqyosida ya'ni biosfera chegaralari o'rganiladi. Insonlarning tabiatga ko'rsatayotgan ta'sirlari aytarli katta bo'lmagan taqdirda ushbu muammo iqtisodiy muammolarga kiritilmas edi. Hozirgi kunda insonlar tabiiyatdan foydalanibgina qolmay balki unga juda ko'plab talofatlar keltirilmqda. Ya'ni ko'plab o'simlik turlarining kamayib ketishiga antropogen omil sabab. Masalan Yetmak avvallari nishinla tayyorlab xalqimiz keng foydalanib kelishgan va ushbu o'simlik o'z o'rnini tiklab ulgurishga ulgurmay qolgan. Hozirgi kunda ushbu o'simlik ham muhofaza qilinadigan tur bo'lib qolgan shu kabi turlar juda ko'plab uchraydi. Tabiat har doim bizga cheksiz xizmat ko'rsatadi. Lekin bugungi kundagi ahvol shuni isbotlab turibdiki, tabiat insolarni o'ylamay, haddan tashqari ko'p ta'sirlar bermoqda va tabiat ushbu tasrlarga bardosh bera olmayapti yani yo'qolgan o'simlik turlarini tiklashga kuchi yetmayapti yani o'z-o'zini qaytadan tiklab ulgura olmayapti. Bizning tabiat uchun qiladigan eng katta yordamimiz tabiatga ziyon yetkazmaslik ,havoni va tuproqlarni ifloslanishini oldini olish. Muhofaza qilinayotgan turlarni asrab avaylash soni kamayib



borayotgan turlarni esa iloji boricha kamayishini oldini olish va ko'plab foydali o'simlik turlarini ekib yetishtirish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sharobitdinovich, T. K., Ravshanovich, O. R. I., & Baxtiyarovna, U. F. (2022). LIPA O'SIMLIGINING MORFOLOGIYASI VA FIZIOLOGIYASI, FARG'ONA SHAHAR FLORASIDAGI AHAMIYATI. *Farg'ona davlat universiteti*, (5), 63-63.
2. Ravshanovich, O. I. THE WORLD OF PLANTS IN THE URBAN FLORA OF FERGANA CITY.
3. Ravshanovich, O. I. (2024). KO'KNORNAMOLAR QABILASI— (PAPAVERALES) HAQIDA UMUMIY XARAKTERISTIKA.
4. Saydiyevna, K. G. (2023). THE USE OF ALLUSIVE UNITS IN POETRY. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), .
5. Baxtiyarovna, U. F. (2023). FARG'ONA SHAHRI URBANOFLORESIDA UCHRAYDIGAN MOMAQAYMOQ-TARAXACUM OFFICINALE, O'SIMLIGINING BOTANIK TAVSIFI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(20), 634-635.

